

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI IYMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KARIMOVA LATOFAT SADULLAYEVNA

INTELLEKTUAL KAPITALNI TAKROR HOSIL QILISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
economic sciences**

Karimova Latofat Sadullayevna

Intelektual kapitalni takror hosil qilish mexanizmini takomillashtirishning
nazariy asoslari.....3

Каримова Латофат Садуллаевна

Теоретические основы совершенствования механизма воспроизводства
интеллектуального капитала.....27

Karimova Latofat Sadullaevna

Theoretical basis for improving the mechanism of reproduction of
intellectual capital.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works58

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI IYMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KARIMOVA LATOFAT SADULLAYEVNA

INTELLEKTUAL KAPITALNI TAKROR HOSIL QILISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt2081 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtiriladi.

Ilmiy rahbar:	Mambetjanov Kaxramon Kurbandurdiyevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Abdullayev Suyun Artikovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Rasulova Dilfuza Valiyevna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Alfraganus universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «__» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99872) 239-28-72; faks: (99872) 239-01-49, (99872) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99872) 239-88-72; faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «__» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

B.E. Mamaraximov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
i.f.d., professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi jarayonida sodir bo'layotgan keskin o'zgarishlar mamlakatlar iqtisodiyotini innovatsion taraqqiyot modeliga o'tkazish tendensiyasini kuchaytirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatlarda intellektual kapitalni takror hosil qilish jarayonlarini jadallashtirishni talab etmoqda. Tahlillarga ko'ra, "Global innovatsiya indeksi – 2024 reytingida Shveysariya (67,5), Shvetsiya (64,5), AQSh (62,4), Singapur (61,2), Buyuk Britaniya (61,0) kabi mamlakatlar yuqori innovatsion indeksga erishishgan. Jahonning taraqqiy etgan mamlakatlarida koronavirus pandemiyasi sharoitida innovatsion iqtisodiyotning samarali tashkil etilganligi iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda rivojlanishini saqlab qoldi. Xitoy, Turkiya, Hindiston va Vyetnam kabi rivojlanayotgan o'rta daromadli mamlakatlar iqtisodiyotlari 2011–2023-yillarda o'zlarining mavjud fan va innovatsion salohiyatlari darajasidan yuqori darajadagi innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlariga erishishdi"¹. Bu kabi davlatlarning iqtisodiyotini barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida intellektual kapital keltiradigan bo'lsa, uning o'rni beqiyos va ahamiyatli ekanligi o'z isbotini topadi. Ushbu holat rivojlangan va bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda intellektual kapitalga ustuvorlik qaratilayotganligidan dalolat beradi.

Jahonning taraqqiy etgan mamlakatlarida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, ilm-fan sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilish, innovatsion faoliyatni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash yuzasidan maqsadli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, innovatsion faoliyatga sarflangan davlat va xususiy sektor xarajatlarini aniqlash hamda optimallashtirish, ushbu jarayonda ishtirok etuvchi institutlar faoliyatini takomillashtirish, sun'iy intellekt, mikrochiplar, nano-texnologiyalar, bio-texnologiyalar, qayta tiklanuvchi resurslar, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish orqali istiqbolda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xususiy sektor mablag'larini jalb qilishda rag'batlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va innovatsion faollikni oshirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda intellektual kapitalni rivojlantirish va uning tarkibiy qismlarini takomillashtirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish modeliga o'tkazishni jadallashtirish, iqtisodiyotning jadal o'sib borayotgan yuqori texnologiyali tarmoqlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, innovatsion infratuzilma subyektlari faoliyatini kengaytirish, innovatsion mahsulotlar va texnologiyalarga bo'lgan talabni rag'batlantirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mamlakatda "...yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag'batlantirish", "...global innovatsion indeks reytingida O'zbekistonning o'rnini yaxshilash va 2026-yilga borib ushbu reyting bo'yicha jahonning 56 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirish" vazifalarining belgilab berilishi mazkur muammoning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu borada milliy innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish mexanizmini

¹ World Intellectual Property Organization (WIPO) (2024). Global Innovation Index 2024: Unlocking the Promise of Social Entrepreneurship. Geneva: WIPO. 10.34667/tind.50062.

takomillashtirish, innovatsion klasterlarni davlat-xususiy sherikchilik asosida shakllantirish, xususiy sektor va hududlarda innovatsion faoliyatni moliyaviy vositalar asosida rag‘batlantirish yo‘nalishlaridagi tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-sonli “O‘zbekiston–2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2023-yil 3-iyuldagi PQ–200-sonli “Ma‘muriy islohotlar doirasida oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, 2022-yil 6-iyuldagi PF–165-sonli “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF–6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 2-martdagi PF–5953-sonli “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida, 2018-yil 8-oktyabrdagi PF–5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2018-yil 21-sentyabrdagi PF–5544-sonli “2019–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2018-yil 7-maydagi PQ–3698-sonli “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohaslariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Intellektual kapitalni rivojlantirish masalalari bir qator xorijlik olimlar, jumladan, Lundvall B. Mensh G., Porter M., Solou R., Toffler E., Frimen K., Shumpeter Y, F. Kotler, K.M Kleyton, R.M. Kanter, B. Santo, N. Blum, CH.I. Jons, J.V. Rinen, M. Uebb, J. Faberberg, M. Srholes, R. Gordon, J. Shot, V.E. Shtaynmyuller va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan².

Milliy iqtisodiyotda intellektual kapitalni takror hosil qilishning ayrim jihatlari MDH mamlakatlari olimlaridan A.Virolaynen, E.Ignatushenko, I.Melnikova, A.Nechaev, I.Rodionov, Y.Ryumina, T.Tumina, R.Fatxutdinov va boshqalar tomonidan muayyan darajada o‘rganilgan³.

² Lundvall B.A. National Systems of Innovation. Towards the Theory of Innovation and Interactive Learning. L.: Pintor Publications, 1992. P.195; Mensch G. Stalemate in Technology: Innovations Overcome the Depression - New York: Ballinger Publishing Company, 1979. p. 14; Портер М. Международная конкуренция. М.: Международные отношения, 1993. - 896 с.; Solow Robert M. The last 50 years in growth theory and the next 10. Oxford Review of Economic Policy. Oxford Journals. 23, 2007, p. 3-14; Тоффлер Э. Третья волна. М.: АСТ, 2004. - с. 56; Freeman C. The “National System of Innovation” in historical perspective/ Cambridge Journal of Economics. - 1995. - p. 5; Шумпетер Й. Теория экономического развития. - М.: Прогресс, 1982. - 455 с.

³ Виrolайнен А.О. Финансирование инвестиций при переходе к инновационному развитию экономики: автореферат дисс. на соискание уч. ст. д.э.н. - Санкт-Петербург, 2008. - 47 с.; Игнатушенко Е.И. Инновационная Германия в экономике Европейского Союза в эпоху мирового экономического и

O‘zbekiston iqtisodiyotida intellektual kapitalni shakllantirishning ayrim jihatlari mamlakatimiz iqtisodchi-olimlarining ilmiy tadqiqotlarida ham o‘rganilgan. Bular jumlasiga X.P.Abulkasimov, B.A.Begalov, A.V.Vaxabov, S.A.Voronin, Z.T.Gaibnazarova, S.A.Giyasov, I.J.Jaxongirov, A.A.Kadirov, M.A.Maxkamova, N.M.Maxmudov, N.K.Muxitdinova, R.R.Nazarova, G.X.Razikova, T.S.Rasulov, F.B.Shakirova, Sh.G.Yuldashev va boshqalarning ilmiy ishlarini kiritish mumkin⁴.

Ushbu iqtisodchi-olimlarning ilmiy ishlariga qaramasdan, bugungi kunda mamlakatda intellektual kapitalni takror hosil qilish mexanizmini takomillashtirish muammolariga bog‘ishlangan kompleks tadqiqot mavjud emas. Bularning barchasi ushbu mavzu bo‘yicha alohida tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot rejasi,

финансового кризиса//Молодой ученый. 2012, №7, С. 78-82.; Мельникова И.А. Стимулирование научно-инновационной деятельности: мировой опыт// Журнал международного права и международных отношений, 2010, № 3.; Нечаев А.С. Совершенствование системы финансового обеспечения инвестиционно-инновационной деятельности: автореферат дисс. на соискание уч. ст. д.э.н., М., 2010.- 38 с.; Родионов И.И. Модели формирования института венчурных инвестиций// The AngelInvestor Journal, p. 42; Рюмина Ю.А. Зарубежный опыт налогового стимулирования инновационной деятельности// Вестник Томского государственного университета, 2012, №3(19), с. 80-85; Тумина Т.А. Инновационное развитие экономических систем: автореферат дисс. на соискание уч. ст. д.э.н., Белгород, 2009. - 46 с.; Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент. Учебник для вузов. - 6-е изд. - СПб.: Питер, 2011. - 448 с.; Котлер Ф. Новые маркетинговые технологии. Методики создания гениальных идей/Пер. с англ. под ред. Т.Р.Тэор, Ф. Котлер, Ф. Триас де Без. - СПб.: Издательский дом «Нева», 2004. - 192 с.; Кристенсен Клейтон М. Дилемма инноватора: пер. с англ. /К. Клейтон. М.: Альпина Бизнес Букс, 2004. - 239 с.; Кантер Р.М. «Постепенно – радикальные инновации» // Harvard Business Review. - август 2010. - №7(8). - с. 32; Санто Б. Инновации как средство экономического развития [Текст]: пер. с венг. /под ред. В.В. Сазонова. - М.: Прогресс, 2005. - 296 с.; Bloom N., Jones C.I., Van Reenen J. and Webb M. (2020). Are ideas getting harder to find? //American Economic Review, 110 (4): P. 1104-1144.; Fagerberg J., Srholec M. National innovation systems, capabilities and economic development //Research policy. – 2008. – Т. 37. – №. 9. – Ps. 1417-1435.; Gordon, R. (2012). Is US Economic Growth Over? Faltering Innovation Confronts the Six Headwinds. NBER Working Paper №18315. – 23 Ps.; Schot J., Steinmueller W.E. Three frames for innovation policy: R&D, systems of innovation and transformative change //Research policy. - 2018. - Т. 47. -№. 9. - Ps. 1554-1567

⁴ Абулкасимов Х.П., Расулов Т.С. Особенности научно-технической и инновационной политики стран СНГ, Ближнего и Среднего Востока. - Т.: ТашГИВ, 2017. -379 с.; Бегалов Б.А. Основные тенденции развития инновационной экономики// Экономический вестник Узбекистана, 2013, № 3-4, с. 107-110; Вахабов А.В. Разыкова Г.Х. Модернизация экономики. Учебное пособие. - Т.: “Iqtisod-moliya”, 2014. - 200 с.; Воронин С.А. Методы поддержки инновационной деятельности предприятий реального сектора на основе инструментов налогообложения//Материалы республиканской научно-практической конференции « O‘zbekistonda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va resurs bazasini mustahkamlash - iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashning muhim omili» Т.: Moliya, 2016, s. 173-174.; Gaibnazarova Z.T. Innovatsion investitsiyalashtirish samaradorligini oshirishning nazariy asoslari: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati, Т., 2012. - 28 б.; Гиясов С.А. Совершенствование налоговых льгот в регулировании инновационно-инвестиционной деятельности предприятий: автореферат дисс. доктора философии (PhD) по экономическим наукам, Т., 2019. - 54 с.; Жахонгиров И.Ж. Обеспечение стабильного экономического роста на основе инновационно-инвестиционного развития национальной экономики: автореферат дисс. доктора философии (PhD) по экономическим наукам, Т., 2019. - 58 с.; Кадиров А.А. Национальные инновационные системы и их региональные аспекты - Т.: «Янги аср авлоди», 2011. - 114 с.; Махкамова М.А. Формирование организационно-экономического механизма управления инновационной деятельностью на промышленных предприятиях РУз: дисс. на соискание уч. ст. д.э.н., Т., 2004. - 291 с.; Махмудов Н.М., Ақобирова Д. Инновационная стратегия. Монография. - Т.: «Iqtisodiyot», 2014. - 194 с.; Мухитдинова Н.К. Методология инновационного развития национальной экономики. Монография. - Т.: «Fan va texnologiya», 2016. - 188 с.; Назарова Р.Р. Управление внешнеэкономической деятельностью в Узбекистане на основе инновационного развития в условиях глобализации: автореферат дисс. на соискание учёной степени д.э.н.: Т., 2011. - 48 с.; Shakirova F.B. Innovatsion rivojlanish negizida barqaror iqtisodiy o‘shish mexanizmini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati, Т., 2018. - 56 б.; Юлдашев Ш.Г. Узбекистан на пути к инновационной экономике// Бизнес-эксперт, 2015 год, специальный выпуск, с. 32-35.

shuningdek, YOFA-OT-O-69605 YOF1-24 “Milliy innovatsiya tizimi subyektlarini venchurli moliyalashtirish mexanizmini institutsional mustahkamlashning metodologik muammolari” mavzusidagi yosh olimlar fundamental ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mamlakatda intellektual kapitalni takror hosil qilish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

intellektual kapitalni takror hosil qilish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarni o‘rganib, bu boradagi nazariy qarashlarni tanqidiy tahlil qilish;

intellektual kapitalni takror hosil qilishning yo‘nalishlarini aniqlab, uning xususiyatlarini ochib berish;

intellektual kapitalni takror hosil qilishga bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni o‘rganish bilan bir qatorda unga ta’sir qiluvchi bir qator omillarni ekonometrik modellar yordamida tahlil qilish;

mamlakatda intellektual kapitalni takror hosil qilish institutlari va ular faoliyatini holatini tahlil qilish;

mamlakatimizda intellektual kapitalni rivojlantirish borasida oliy ta’lim tizimining tutgan o‘rni va bog‘liqligi o‘rganish;

O‘zbekistonda intellektual kapitalni takror hosil qilishni rag‘batlantirishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim va milliy innovatsion tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini mamlakatda intellektual kapitalni takror hosil qilish mexanizmini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va guruhlash, grafik usullari, tarixiylik va mantiqiylik yondoshuvlaridan, shuningdek, korrelyatsion-regression tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko‘ra “intellektual kapital” tushunchasining iqtisodiy mazmuni korxonaning raqobatbardoshlik ustunligini ta’minlovchi bilim, tajriba, innovatsion salohiyat va tashkiliy qobiliyatlar majmuasini mehnat, tashkilot va mijozlar kapitali kabi tarkibiy qismlarning o‘zaro samarali integratsiyasi orqali yangi qiymat yaratish, bozor qiymatini oshirish va strategik rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan nodavlat resurs sifatida qayta ta’riflash orqali takomillashtirilgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko‘ra “intellektual kapitalni takror hosil qilish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni inson kapitali, tashkiliy bilimlar va innovatsion salohiyatni tizimli ravishda rivojlantirish, yangilash va ko‘paytirish orqali iqtisodiy subyektning bilimga asoslangan raqobatbardoshligini barqaror saqlab qolishga qaratilgan jarayonni zamonaviy iqtisodiyotda intellektual resurslarni strategik investitsiya obyekti sifatida qarash yordamida qayta nazariy asoslash orqali takomillashtirilgan;

intellektual kapitalni takror hosil qilishning iqtisodiy mexanizmini “loyiha

fabrikalari”ni tashkil etish orqali yosh olimlarning innovatsion g‘oyalarini “tayyor biznes”ga aylantirish va ularga zarur bo‘ladigan asosiy kapitalni uzoq muddatli foizsiz lizing asosida taqdim etish orqali takomillashtirish taklifi asoslangan;

O‘zbekistonda intellektual kapitalning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar o‘rtasidagi korrelyatsion-regression bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning 2030-yilga qadar ko‘p variantli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

milliy iqtisodiyot tarmoqlarida intellektual kapitalni takror hosil qilish mexanizmi tahlil qilingan;

intellektual kapitalni takror hosil qilish jarayonida omillarning tavsifi ochib berilgan va tizimlashtirilgan;

mamlakatda fan va innovatsiyalar tizimining rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlil etilgan va mavjud kamchiliklar aniqlangan;

milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish tendensiyalari mehnat unumdorligi, fan-texnika taraqqiyoti ko‘rsatkichlari dinamikasi asosida baholangan va mavjud muammolar aniqlangan;

respublika iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish modeliga o‘tkazish mexanizmini takomillashtirish va yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirishga asoslangan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

uzoq muddatli istiqbolda innovatsion rivojlanish modeliga o‘tishning muqobil ssenariyalari ishlab chiqilgan va 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlar hisoblangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi innovatsion rivojlanish agentligi, Jahon banki, Yevrostat, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Jahon intellektual mulk tashkiloti (JIMT) rasmiy ma’lumotlari va metodologiyalaridan foydalanilganligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakatda intellektual kapitalni rivojlantirish bo‘yicha davlat milliy dasturlarining samarali amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi va boshqa davlat boshqaruvi organlari tomonidan intellektual kapitalni takror hosil qilish bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish, oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Makroiqtisodiyot”, “Innovatsion iqtisodiyot” fanlarining o‘quv materiallarini takomillashtirish va

talabalarga ta'lim berish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:

“intellektual kapital” tushunchasining iqtisodiy mazmunini korxonaning raqobatbardoshlik ustunligini ta'minlovchi bilim, tajriba, innovatsion salohiyat va tashkiliy qobiliyatlar majmuasini mehnat, tashkilot va mijozlar kapitali kabi tarkibiy qismlarning o'zaro samarali integratsiyasi orqali yangi qiymat yaratish, bozor qiymatini oshirish va strategik rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan nodavlat resurs sifatida qayta ta'riflash orqali takomillashtirish taklifi “Iqtisodiy siyosatga kirish” nomli innovatsion darslik tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2025-yil 11-martdagi 97-sonli buyrug'i asosida berilgan Guvohnoma). Bu ilmiy natijalardan darslikda foydalanish bakalavriat va magistratura talabalarida “inson kapitali”, “intellektual kapital” iqtisodiy kategoriyalarining mohiyatini to'g'ri va kengroq tushunishlariga imkon yaratgan;

“intellektual kapitalni takror hosil qilish” tushunchasining iqtisodiy mazmunini inson kapitali, tashkiliy bilimlar va innovatsion salohiyatni tizimli ravishda rivojlantirish, yangilash va ko'paytirish orqali iqtisodiy subyektning bilimga asoslangan raqobatbardoshligini barqaror saqlab qolishga qaratilgan jarayonni zamonaviy iqtisodiyotda intellektual resurslarni strategik investitsiya obyekti sifatida qarash yordamida qayta nazariy asoslash orqali takomillashtirish taklifi “Iqtisodiy siyosatga kirish” nomli innovatsion darslikda o'z ifodasini topgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2025-yil 11-martdagi 97-sonli buyrug'i asosida berilgan Guvohnoma). Ushbu taklifdan darslikda foydalanish bakalavriat va magistratura talabalarida “intellektual kapitalni takror hosil qilish” iqtisodiy kategoriyalarining mohiyatini to'g'ri va kengroq tushunishlariga imkon yaratgan, intellektual kapitalni takror hosil qilish mexanizmi haqida ko'nikmalar paydo bolishiga yordam beradi;

Intellektual kapitalni takror hosil qilishning iqtisodiy mexanizmini respublikada “loyiha fabrikalari”ni tashkil etib, yosh olimlar innovatsion g'oyalarini “tayyor biznes”ga aylantirish hamda ularga zarur bo'ladigan asosiy kapital xaridi uchun uzoq muddatli foizsiz lizing taqdim qilish orqali takomillashtirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-son ““O'zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorining 1b-ilovasi 32-maqсадini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 16-maydagi 03/03-1400-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi “innovatsion startup markazlari” orqali sanoat zonalarida “tayyor biznes” korxonalarini ochish, yoshlarga uzoq muddatga foizsiz lizinglar taqdim etish natijasida intellektual kapitalni takror hosil qilish jarayonlarining jadallashishiga xizmat qiladi;

respublikada intellektual kapitalning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish asosida O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning 2030-yilgacha bo'lgan ko'p variantli prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2024-yil 13-martdagi 128-son “O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024–2025-yillarda amalga

oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror ilovasining 5-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 16 maydagi 03/03-1400- sonli ma'lumotnomasi). Bu taklifning amaliyotga joriy qilinishi davlat va xususiy sektor vakillarining ilmiy natija beruvchi loyihalarining maqsadli ko'rsatkichlarini ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta, shu jumladan, 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan ilmiy jurnallarda 4 ta va nufuzli xorijiy jurnallarda 5 tasi nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining umumiy hajmi 132 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan bo'lib, Respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustivor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ishning ilmiy yangliklari nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi holati hamda nashr etilgan ishlar va dissertatsiya ishining tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Intellectual kapital va uni takror hosil qilishning konseptual asoslari"** nomli birinchi bobida tadqiqot ishining ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan bo'lib, intellektual kapitalni takror hosil qilish to'g'risidagi qarashlar evolyutsiyasi, uni takror hosil qilishning konseptual asoslari o'rganilgan. Intellektual kapitalning tarkibiy tuzilishi, hosil bo'lish manbalari, intellektual mulk, inson kapitali kabi terminlarning bir-biridan farqlanish mezonlari yoritilgan. Mavzuga oid muammolar doirasidagi respublikamiz hamda xorijiy mamlakatlar olimlarining ishlari tahlil etilib, intellektual kapitalni takror hosil qilishning o'ziga xos xususiyatlari tushuntirilgan. Intellektual kapitalni takror hosil qilish jarayoniga bilvosita va bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar qamrov darajasiga ko'ra guruhlarga ajratib ko'rsatilgan. Ta'kidlash joizki, intellektual kapital kategoriyasiga strategik resurs, global raqobat va milliy barqarorlik vositasi, ijtimoiy hamkorlik va axborot omillari o'rtasidagi iqtisodiy munosabat nuqtayi nazaridan yondashish asosida takomillashtirilgan ta'rif ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijasida intellektual kapitalni o'rganishda dastlabki qadamlar Yevropa va Shimoliy Amerikaning rivojlangan mamlakatlarida XX asrning ikkinchi yarmida iqtisodiy munosabatlarda nomoddiy aktivlarning o'sib borayotgan roli va ushbu mamlakatlarning ishlab chiqarish tizimlarini almashtirish tendensiyalariga javoban amalga oshirilgan davrdan boshlab, turli vaqtlarda olimlar tomonidan taklif qilingan intellektual kapitalning ta'riflarini quyidagi jadval asosida umumlashtirib ko'rib chiqishimiz mumkin (1-jadval).

Intellectual kapital tushunchasiga berilgan ta'riflar⁵

№	Muallif	Ta'rif
1.	Virchenko V.V.	ishlab chiqarishdagi yutuqlar tufayli yangi qiymat yaratishni ta'minlaydigan, iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish, qo'shimcha foyda olish va bozorda raqobatbardosh mavqeni ta'minlash imkonini beradigan intellektual faoliyat natijalari yig'indisi ⁶
2.	Shuls T.V	Intellektual kapital – kelajakdagi daromadlar yoki kelajakdagi qoniqishlar manbai yoki har ikkalasi ⁷
3.	Styuart Tomas A.	“Intellektual kapital – bu qiymati kattaroq bo‘lgan mulk ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan, kompaniyada shakllangan va unga tegishli bo‘lgan o‘ziga xos foydali bilim, intellektual materialdir. Aqlning erkin harakat kuchi ta'sirida ma'lum shaklga ega bo‘lgan qandaydir foydali qiymatliklar: ma'lumotlar ro'yxati, axborot bazasi, jarayonning tafsiloti va shu kabilar vujudga kelganda, aql-idrok mulkka aylanadi” ⁸
4.	Abduraxmanov Q.X.	Intellektual kapital – bu faqat inson bilimlari va malakalari emas, balki ularni iqtisodiy qiymatga aylantiruvchi innovatsion muhit, texnologik imkoniyatlar va boshqaruv mexanizmlari majmui sifatida talqin etiladi. Intellektual kapitalning reproduksiyasini iqtisodiy jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy, texnologik va kognitiv tizimlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasi sifatida ko‘radi ⁹
5.	Abulqosimov X.	Intellektual kapitalning qayta ishlab chiqilishi raqamlashtirish, avtomatlashtirish va sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish orqali ta'minlanadi. Bu jarayon iqtisodiy va texnologik transformatsiyaning asosiy drayveri sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy iqtisodiyotda axborot texnologiyalarini joriy etish intellektual kapitalning tez va yuqori sifatda shakllanishiga xizmat qiladi ¹⁰
6.	Hasanxonova N.I.	Intellektual kapitalni qiymatini aniqlab, uni buxg'alteriya hisobotlarida aks ettirishi lozimligini ta'kidlaydi. Ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan axborot muhiti – biznes va davlat sektorlarida hisobotning aniq va shaffof yuritilishi intellektual kapitalni hisoblashning asosiy sharti ¹¹
7.	Muallif ta'rif	Intellektual kapital – bu milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini shakllantiruvchi strategik resurs bo'lib, inson bilimi, ijodiy qobiliyati, ilmiy-tadqiqot salohiyati, texnologik ixtirolar, ta'lim tizimi, raqamli infratuzilma va davlatning innovatsion siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida takror hosil qilinadigan va yuqori qo'shilgan qiymat hamda daromad yaratadigan kapitaldir

⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

⁶ Иванюк Ирина Александровна. Рыночный механизм воспроизводства интеллектуального капитала: диссертация доктора экономических наук: 08.00.01 Москва 2004 <http://dlib.rsl.ru/rsl01002000000/rs101002748000/rs101002748754/rs101002748754.pdf>

⁷ Schultz T.W. Investments in Human Capital : The Role of Education and of Research /T.W. Schutz. – New York : Macmillan & Co., Free Press, 1971. – P. 125.

⁸ Стюарт Томас А. Интеллектуальный капитал. Новый источник богатства организаций. / Пер. с англ. В.Поздриной. – М.: Поколение, 2007. – С.368. Steward T.A. Intellectual Capital. The New Wealth of Organizations. New York: Currency Doubleday, 1997.

⁹ Abduraxmanov Q.X. “Intellektual kapital va innovatsion rivojlanishning nazariy asoslari”, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy to'plami, 2022.

¹⁰ Abulqosimov X. “Innovatsion iqtisodiyotda intellektual kapitalni shakllantirish mexanizmlari” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnali, 2021, №4.

¹¹ Хасанхонова Н.И. “Мамлакатимизда интеллектуал капитал ва инновацион фаолиятнинг амалий ҳолати таҳлили” иқтисод ва молия / экономика и финансы 2020, 4.

Mualliflarning intellektual kapitalning mohiyatini o'rganishga bo'lgan yondashuvlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik xorijiy olimlar intellektual kapitalni kompaniyaning qimmatli nomoddiy aktivi deb bilishadi, undan samarali foydalanilganda, u raqobatdosh ustunliklarni ta'minlaydi va daromad keltiradi.

Muallif fikricha, intellektual kapital – bu milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini shakllantiruvchi strategik resurs bo'lib, inson bilimi, ijodiy qobiliyati, ilmiy-tadqiqot salohiyati, texnologik ixtirolar, ta'lim tizimi, raqamli infratuzilma va davlatning innovatsion siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida takror hosil qilinadigan va yuqori qo'shilgan qiymat hamda daromad yaratadigan kapitaldir. U jamiyatda bilimga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish, resurslarning samarali taqsimlanishi, ishlab chiqarishning texnologik modernizatsiyasi va iqtisodiy o'sishning uzluksizligini ta'minlovchi omildir. Intellektual kapital millatning iqtisodiy barqarorligi va global raqobatbardoshligini belgilaydigan nomoddiy boylik bo'lib, uning taraqqiyoti jamiyatning innovatsiyaga moyilligi, inson kapitali sifatining oshishi va bilimlar almashinuvining intensivligiga bog'liq.

Ushbu ta'rifning hozirgi kungacha berilgan boshqa ta'riflardan farqi shundaki, unda intellektual kapital kategoriyasiga strategik resurs, ya'ni intellektual kapital faqat mavjud bilim va innovatsiyalar emas, balki milliy iqtisodiyotning uzluksiz rivojlanishini ta'minlovchi mexanizm sifatida ekanligi, kompleks tarkibiy qismlar, ya'ni inson bilimi, ta'lim, ilmiy-tadqiqotlar, raqamli infratuzilma va davlat siyosati bir-biri bilan uzviy bog'liq holda intellektual kapitalni shakllantirishi, global raqobat va milliy barqarorlik, ya'ni milliy iqtisodiyotning intellektual kapitali mamlakatning jahon bozoridagi o'rnini belgilashi, va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashi, innovatsiya va takror hosil qilish mexanizmi, ya'ni intellektual kapital faqat bir martalik resurs emas, balki doimiy ravishda yangilanib, innovatsiyalarga yo'naltirilgan iqtisodiy kuch ekanligi nuqtayi nazaridan yondashilgan.

Mavjud ta'riflardan farqli o'laroq, muallif taklif qilayotgan ta'rif nafaqat konsepsiyaning barcha asosiy elementlarini ko'rib chiqadi, balki ushbu sohadagi tadqiqotlar uchun nazariy asos ham bo'ladi. Intellektual kapitalning o'ziga xosligi shundan iboratki, undan foydalanish yangi bilim, ko'nikma, innovatsion iste'mol va ishlab chiqarish tovarlarida mujassamlangan qo'shilgan qiymat tashuvchisi bo'lgan yangi intellektual mahsulotlarni yaratishga olib keladi.

Intellektual kapitalni takror hosil qilish jarayoni mamlakatdagi mavjud intellektual resurslarni o'rganib chiqish, unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni guruhlash va ularni muhimlik darajasi bo'yicha tasniflashni talab etadi.

Intellektual kapitalning tashkil topishi quyidagi omillarga bog'liq:

Mamlakatning ta'lim tizimi

Mamlakatda axborot bazasini kengaytirish

Mehnat resurslaridan samarali foydalanish va unga bo'lgan talabni aniqlash

Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish.

Mamlakatda intellektual kapitalni takror hosil qilish omillarini umuman olganda ikkita katta guruhga bo'lish mumkin.

Bevosita ta'sir etuvchi omillar – bu intellektual kapitalni takror hosil qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etadigan, ta'lim, shaxs tarbiyalangan jamoa (oila), shaxsga sarflangan va o'zlashtirilgan investitsiyalar, yetarlicha axborot bazasi, to'g'ri tanlangan mutaxassislik, shaxsning daromadidan iborat. Bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar – bular shaxsning o'ziga bog'liq bo'lmay, uni o'rab turgan muhitning ta'sir darajasi bilan izohlanadi.

Yuqoridagi bevosita va bilvosita omillarni tahlil qilish natijasidan kelib chiqqan holda, muallifning fikricha, ma'lum bir iqtisodiy tizim doirasida intellektual kapitalni takror ishlab chiqarishga yordam beradigan quyidagi omillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Ishchi kuchi

Nomoddiy aktivlar: intellektual qobiliyatlar, intellektual salohiyat, axborot resursi, intellektual mulk

Moliyaviy va innovatsion kapital

Yuqori texnologiyalar.

Yuqoridagi omillarga qo'shimcha ravishda kapitalning tuzilishi va uni takror ishlab chiqarish samaradorligiga bir qator tashqi sharoitlar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bular: axborot muhitining rivojlanish darajasi, zamonaviy bozor infratuzilmasining mavjudligi, davlat iqtisodiy siyosatining mohiyati; kapital harakati uchun institutsional, huquqiy, innovatsion muhitning holati, ilmiy-texnikaviy, geoiqtisodiy va boshqa shart-sharoitlar.

Mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish yuqori darajadagi ishlab chiqarish texnologiyalariga asoslanishi va sifatli, arzon iste'mol bozori talablariga mos tovarlarni ishlab chiqarishda intellektual kapitalni innovatsion yangiliklar asosida kapittallashuvi darajasining o'sib borishiga bog'liq.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbekistonda intellektual kapitalni takror hosil qilish jarayonlari va uning o‘zgarish tendensiyalari”** deb nomlangan bo'lib, respublikamizda intellektual kapitalni shakllantirishning xususiyatlari, takror hosil qilish institutlari faoliyatining bugungi kungacha bo'lgan holati statistik ma'lumotlar asosida chuqur tahlil qilingan. Intellektual kapitalning ajralmas qismi hisoblangan inson kapitalining shakllanish va rivojlanish bosqichlarida ishtirok etuvchi mamlakatimizdagi ta'lim tashkilotlari faoliyatini o'rganish maqsadida 5-25 yillik davrlarni o'z ichiga olgan davlat statistika qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar saralanib, kategoriyalar bo'yicha jamlangan. O'zbekistonda intellektual kapital rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar va ular o'rtasidagi bog'liqlikning o'zgarish tendensiyalarini ifodalovchi ekonometrik modellar ishlab chiqilgan va ular yordamida 2025–2030-yillardagi ba'zi iqtisodiy ko'rsatkichlarning prognozi amalga oshirilgan.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning innovatsion yo'li yuqori

texnologiyali sanoatni rivojlantirish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish va hokazolarga asoslanadi. Iqtisodiy rivojlanishning ushbu yo‘li yuqori malakali va yuqori salohiyatli mutaxassislarni talab qiladi. Bunday kadrlarni mamlakatda yetishtirish – kuchli davlat siyosatining ajralmas bo‘g‘ini bo‘lmog‘i lozim. “Rivojlangan mamlakatlarda ta‘limning to‘liq sikli(davri)ga investitsiya kiritishga, ya‘ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e‘tibor beriladi. Chunki, ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa, bu ko‘rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e‘tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart”¹².

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan undagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘zlarining samarali faoliyatining muhim omili sifatida intellektual kapitalni shakllantirish va rivojlantirish zarurati bilan duch kela boshladilar. Intellektual kapitalning asosiy tashuvchisi maxsus tanlangan va o‘qitilgan xodimlari hisoblanadi.

Intellektual kapitalni shakllantirish xususiyatlarini aniqlash uchun uning tuzilishini ko‘rib chiqish kerak. Intellektual kapital quyidagilarga bo‘linadi:

Inson kapitali – mamlakatdagi faol mehnat resurslarining bilimlari, ko‘nikmalari va qobiliyatlari.

Ijtimoiy kapital – mamlakat ichidagi va tashqarisidagi munosabatlar tarmog‘idan kelib chiqadigan zaxiralar va bilimlar harakati.

Tashkiliy kapital (intellektual mulk) – bu mamlakatga tegishli bo‘lgan va ma‘lumotlar bazalarida, ko‘rsatmalarda va hokazolarda saqlanadigan institutsional bilim sifatida belgilanadi. U ko‘pincha tarkibiy kapital, deb ataladi.

Intellektual kapitalning uch qisimli konsepsiyasi shuni ko‘rsatadiki, garchi alohida odamlar bilimlarni (inson kapitali) rivojlantirsa, saqlasa va undan foydalansa ham, bu bilimlar odamlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar (ijtimoiy kapital) orqali kengaytirilib, natijada mamlakatga tegishli bo‘lgan institutsional bilimlar asta-sekin shakllanadi. Mutaxassislar inson kapitalini jalb qilish, to‘plash, rivojlantirish va saqlash manbalari shaxslarning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlaridan iborat ekanligini ta’kidlashadi. Mamlakatning intellektual kapitalini shakllantirish muammosi jamiyatni inson resurslari bilan ta’minlash, rivojlanish, yetarlicha ish haqi to‘lash, jamg‘arish, inson resurslari harakatini tahlil qilish, tashkiliy tayyorgarlik va bilimlarni boshqarish bilan bog‘liq amaliy masalalarga qaratilgan.

Milliy iqtisodiyotda intellektual kapitalni takror hosil qilish jarayonlari samaradorligini oshirishda yoshlar faolligidan foydalanishga uzoq muddatli investitsiya sifatida qaralmoqda. Ular faolligini oshirishga esa, yoshlarning innovatsion g‘oyalarini respublikada “Loyiha fabrikalari”ni tashkil etish orqali

¹² <https://president.uz/uz/lists/> O‘zbekiston Respublika Prezidentning - Oliy Majlisga Murojaatnomasi T., 28.12.2018 y.

“tayyor biznes”ga aylantirish zaruriyati innovatsiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim o‘rin egallaydi.

Muallif fikricha, bunday loyiha fabrikalarini tashkil etish, yoshlarni innovatsiyalar bilan tanishtirish va texnologiyalarni o‘rganish imkoniyatini yaratish orqali, ularning g‘oyasini “tayyor biznes”ga aylantirish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda, eng avvalo, “inkubatsiya va akseleratsiya” markazlarida yoshlarga innovatsiyalarni keng tarqatish, ilm-fan va innovatsiya sohasini rivojlantirish lozim.

Innovatsiyalarning keng tarqatilishi, yoshlarning innovatsiyalar sohasidagi bilim va malakasini oshirish, texnologiyalarni yangilash va innovatsiyalarni amalga oshirishga qiziqtirish kerak. Bu jarayonda “Loyiha fabrikalari”ning yoshlarga innovatsiyalarni tashkil etishda muhim hisoblanadi. Jumladan, 2021-yilda O‘zbekistonda yoshlar startaplarini ishga tushirish masalalari ko‘rildi, yoshlar biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni rejalashtirish uchun mablag‘ ajratila boshlangan. O‘zbekistonda yoshlar biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash maqsadi bilan ajratilgan 100 million dollarlik loyiha yoshlar startapi, deb nomlandi.

Iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan 2023-yilda jami 441 ta loyihadan 378 tasida ishlar boshlanib, 3,9 trln so‘m o‘zlashtirildi. Jumladan, 25 ta tarmoqda 209 ta loyiha bo‘yicha ishlar to‘liq yakunlandi. Hududlarda 11 ta innovatsion faoliyat infratuzilma subyektlari tashkil etilib, 10 foiz o‘shiga erishildi hamda bugungi kunda ularning umumiy soni 47 taga yetkazildi. Yoshlar texnoparklariga 10298 nafar yoshlar jalb etilib, 274,5 foiz o‘shisi ta‘minlandi. Tanlovlar doirasida 54 ta startap va 50 ta tijoratlashtirish loyihalari moliyalashtirilib, ushbu loyihalar doirasida 71 ta yangi innovatsion korxonalar tashkil etildi hamda 9,2 foiz o‘shiga erishildi¹³.

Yoshlar tomonidan ilgari surilayotgan “Loyiha fabrikalari”ni tayyor biznesga aylantirish zarurati mavjud bo‘lsa va yuqori texnologiyani talab qilinsa uzoq muddatli lizing asosida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Muallif fikricha, intellektual kapitalni takror hosil qilishning iqtisodiy mexanizmini respublikada “Loyiha fabrikalari”ni tashkil etish orqali yosh olimlarning innovatsion g‘oyalarini “Tayyor biznes”ga aylantirish va ularga zarur bo‘ladigan asosiy kapitalni uzoq muddatli foizsiz lizing asosida taqdim etish orqali takomillashtirish lozim.

Mazkur ilmiy tadqiqot ishida intellektual kapitalning holatini tahlil qilish va kelgusidagi ko‘rsatkichlarini prognoz qilish maqsadida 2000–2023-yillar davomidagi O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasining rasmiy ma‘lumotlardan foydalangan holda bir qator ilmiy maqola, xalqaro standartlar va taklif qilinayotgan gipoteza uchun quyidagi ko‘rsatkichlar tanlanib, ma‘lumotlar shakllantirildi (2-jadval).

¹³ <https://innovation.gov.uz/oz/opendata/category/infografika> – Innovatsion rivojlanish agentligi ma‘lumotlari asosida.

2000–2023-yillarda korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan innovatsion tovarlar hajmiga ta'sir etuvchi omillarning o'zgarish tendensiyalari¹⁴

Yil	X1	X2	X3	X4	X5	X6	X7	X8	Y
2000	10653	45872	69	38721	16548	120	61	99.5	1352
2001	11564	49254	69	40312	19548	122	61	99.5	1402
2002	12198	52654	69	45987	23954	123	62	99.5	1485
2003	12726	55231	69	49821	29865	132	62	99.5	1532
2004	13245	58978	69	51743	32654	144	63	99.5	1592
2005	13825	61754	69	55984	35987	153	63	99.5	1621
2006	14123	69876	71	57284	39586	164	64	99.5	1687
2007	14398	72568	72	61532	42658	180	65	99.5	1711
2008	15023	74258	72	66425	49864	222	65	99.5	1732
2009	15648	75325	72	68621	53214	245	66	99.7	1800
2010	16726	76379	73	70811	62631.6	217	65	99.8	1849
2011	17286.4	86255	73	10559	85933.5	195	65	99.9	1348.7
2012	17564.3	60925	73.1	38253	104263	1249	64	100	3635.9
2013	17814.1	60524	73.4	39030	126268	1163	66	100	4614.7
2014	18048	67643	73.4	45028	146392.9	1036	68	100	7043
2015	18276.1	66290	73.6	87025	169344.3	1389	69	100	8023.6
2016	18488.9	64133	73.8	120548	197962.4	1370	70	100	10688.2
2017	18666.3	67448	73.7	150873	236893.1	1632	72	100	18543.3
2018	18829.6	70325	74.6	220346	300685.8	1764	98	100	28871.5
2019	18949	70793	75.1	280324	365598.3	2247	119	100	26811.4
2020	19158.2	83905	73.4	454333	414968.7	2674	127	100	31142.8
2021	19334.9	103898	73.8	442893	519181.4	3880	154	100	27378.6
2022	19517.5	102381	74.3	388762	633567.4	5747	191	100	40451.6
2023	19739.6	184133	74.7	387001	728826.1	7323	219	100	55746.5
2024	20085.2	211200	75.7	455200	754621.3	7992	222	100	59267.4

Bu yerda:

Mehnat resurslari soni – X1;

Oliy ta'lim bitiruvchilari soni – X2;

O'rtacha umr ko'rish darajasi – X3;

Maktab bitiruvchilari soni – X4;

O'rtacha daromad – X5;

Tayanch doktorantura institutlarida tahsil oluvchilar soni – X6;

Oliy ta'lim tashkilotlari soni – X7;

Savodxonlik darajasi – X8.

Korxonalar va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqariladigan innovatsion tovarlar hajmi, mlrd so'm – Y.

Mazkur dissertatsiya ishida har bir ilmiy tadqiqot empirik ma'lumotlar orqali tekshirilishini inobatga olgan holda ma'lumotlarning umumiy jadvali hosil qilindi.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan jamlangan, jadval ishlab chiqilgan.

Jadval ma'lumotlari respublikada korxonalar va tashkilotlarda 2024-yilda ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar hajmi 59267,4 mlrd so'mga teng bo'lganligini ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkichning yildan-yilga o'sib borayotganligini kuzatishimiz mumkin, albatta bunda qisman inflyatsiyaning ham ulushini inobatga olsak bo'ladi, lekin taqqoslama narxlarda ham o'sish tendensiyasi saqlangan.

Korrelyatsiya koeffitsiyentlarini ishlab chiqish va natijaviy belgiga ta'sirini ifodalashi zarur modelni tanlanishiga asos bo'ladi (3-jadval).

3-jadval

O'zbekiston Respublikasida intellektual kapital rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion qiymatlar¹⁵

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)	(7)	(8)	(9)
(1) Y	1.000								
(2) X1	0.699	1.000							
(3) X2	0.787	0.559	1.000						
(4) X3	0.651	0.955	0.527	1.000					
(5) X4	0.908	0.646	0.660	0.568	1.000				
(6) X5	0.976	0.752	0.801	0.689	0.925	1.000			
(7) X6	0.949	0.683	0.849	0.621	0.848	0.976	1.000		
(8) X7	0.947	0.598	0.854	0.544	0.896	0.968	0.972	1.000	
(9) X8	0.621	0.940	0.410	0.899	0.544	0.674	0.613	0.497	1.000

Intellektual kapital rivojlanishiga korxonalar va tashkilotlarda innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishga o'rtacha daromad eng kuchli ta'sir etuvchi omil hisoblanishi o'zaro juft korrelyatsiya 0,976 ga tengligi bilan asoslanadi.

Muallif fikricha, o'rtacha daromadning ortishi natijasida aholining oliy ma'lumotli bo'lishiga intilishi keyinchalik yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni yaratilishi amalga oshadi.

Multikollinearlikni bartaraf qilish uchun tanlab olingan sakkizta omil belgidan yettitasi to'rtta model hosil qilishda qo'llaniladi, savodxonlik darajasi doimiy bo'lganligi natijaviy belgi bilan regression tenglamani ahamiyatsiz modeliga sabab bo'ladi.

Korxonada innovatsion mahsulot ishlab chiqarishdagi eng kuchli omil sifatida mehnat resurslari hajmi ekanligini inobatga olib, quyidagi tenglamada korxonalar va tashkilotlarda ishlab chiqarilayotgan innovatsion mahsulotlar hajmi bilan respublikadagi mehnat resurslari soniga asoslandi (4-jadval)

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

Korxonalar va tashkilotlarda ishlab chiqarilayotgan innovatsion mahsulotlar hajmi bilan respublikadagi mehnat resurslari soni o'rtasidagi regression bog'liqlik¹⁶

Lny	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf Interval]	Sig
lnx1	5.822	.895	6.51	0	3.966 7.678	***
Constant	-47.859	8.668	-5.52	0	-65.836 -29.881	***
Mean dependent var		8.524	SD dependent var		1.336	
R-squared		0.658	Number of obs		24	
F-test		42.321	Prob > F		0.000	
Akaike crit. (AIC)		59.239	Bayesian crit. (BIC)		61.595	

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

$$\ln y = 5.82 \ln x_1 - 47.859$$

O'zbekistonda 2010–2023-yillardagi tahlillardagi tahlillardan ma'lum bo'ldiki, mehnat resurslarining qo'shimcha bir foizga ortishi korxonalarda va tashkilotlarda innovatsion ishlab chiqarishni qo'shimcha 5,8 %ga ko'payishiga sabab bo'ladi.

Regression modelida determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,65$ va $F_{hisob} = 43$ ga teng. Student mezonini bo'yicha har bir koeffitsiyentni taqqoslaganimizda jadval qiymatidan hisobiy qiymatlari katta ekanligi aniqlandi.

Model ishonchli ekanligi Gaus Markov, Akayke va Baesiyan testlari, Dubin Uotsin va Breush Pagan, F-test bo'yicha tekshiriladi. Barcha test qiymatlari bo'yicha modelning iqtisodiy va statistik ahamiyatligi aniqlandi.

